



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

METAFORA TUSHUNCHASINING LINGVISTIK TALQINI VA QUR'ON MATNIGA TATBIQI

Amanova Madina Xamid qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti, stajyor-o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot metaforaning ko'p qirrali tabiatini o'rganadi va uning ta'riflari ilmiy yo'nalishlar hamda lisoniy chegaralar o'rtasida juda murakkab va bir-biridan sezilarli darajada farq qilishini ta'kidlaydi. Alvarezning tadqiqotlariga tayangan holda, muallif Bruk-Rouzing metaforaga bergan ta'rifini — yangi ma'no yaratish uchun odatiy so'z yoki iborani boshqasi bilan almashtirish, ya'ni “aynanlashtirish” jarayoni sifatida ko'rsatib o'tadi. Maqolada metaforalar shunchaki bezak emas, balki muloqotni yanada “bo'yoqdor” (ko'chma ma'noli) va ta'sirchan qilish uchun barcha tillarda qo'llaniladigan muhim lisoniy vosita ekanligi ta'kidlanadi. Aynan Qur'on matni doirasida muallif shuni ta'kidlaydiki, “yaxshi ijodiy metaforalar” ilohiy xabarlarni bilvosita yoki “yashirin” tarzda yetkazish bilan birga, nozik kontekstual ta'sirlarni saqlab qoladigan vositalardir. Bunday yondashuv matnni chuqurroq kognitiv va hissiy anglash imkonini beradi, shuningdek, mavhum ilohiy tushunchalar va insoniy tajriba o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: Kognitiv metafora, konkretlashtiruvchi metafora, jonlantiruvchi metafora, sinestetik metafora, shaxslantiruvchi metafora, sirkulyatsiya, paralogik metafora, ko'chma ma'noli nutq, mutlaq metafora, klische metafora.

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЯ МЕТАФОРЫ И ЕЁ ПРИМЕНЕНИЕ К ТЕКСТУ КОРАНА

Аманова Мадина Хамид кизи

Джизакский государственный педагогический университет, стажёр-преподаватель

Аннотация

Данное исследование изучает многогранную природу метафоры, подчеркивая, что её определения по своей сути сложны и значительно варьируются в зависимости от научных дисциплин и лингвистических границ. Опираясь на исследования Альвареса, автор выделяет определение метафоры Брук-Роуз как процесса «идентификации», при котором общепринятое слово или фраза заменяется другим для создания нового смысла. В статье утверждается, что метафоры не являются просто декоративным элементом, а представляют собой важнейшие лингвистические инструменты, используемые во всех языках для того, чтобы сделать коммуникацию более «красочной» (образной) и впечатляющей. В контексте Корана автор утверждает, что «хорошие творческие метафоры» — это те, которые сохраняют тонкие контекстуальные эффекты, передавая божественные послания косвенным или «скрытым» образом. Такой подход способствует более глубокому когнитивному и эмоциональному восприятию текста, устраняя разрыв между абстрактными теологическими концепциями и человеческим опытом.

Ключевые слова: Концептуальная метафора, конкретизирующая метафора, одушевляющая метафора, синестетическая метафора, олицетворяющая метафора, циркуляция, паралогическая метафора, фигуральный язык, абсолютная метафора, стереотипная метафора

LINGUISTIC INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF METAPHOR AND ITS APPLICATION TO THE QURANIC TEXT

Amanova Madina Khamid qizi
Jizzakh State Pedagogical University, Trainee Lecturer

Abstract

This study explores the multifaceted nature of metaphor, emphasizing that its definitions are inherently complex and vary significantly across scientific disciplines and linguistic boundaries. Drawing on the research of Alvarez, the author highlights Brooke-Rose's definition of metaphor as a process of "identification," where a conventional word or phrase is substituted for another to create new meaning. The article argues that metaphors are not merely decorative but are essential linguistic tools used across all languages to make communication more "colorful" (figurative) and impactful. In the specific context of the Quran, the author posits that "good creative metaphors" are those that preserve subtle contextual effects while conveying divine messages in an indirect or "hidden" manner. This approach allows for a deeper cognitive and emotional engagement with the text, bridging the gap between abstract theological concepts and human experience.


Keywords: Conceptual metaphor, concretizing metaphor, animating metaphor, synaesthetic metaphor, personifying metaphor, circulation, paralogic metaphor, figurative language, absolute metaphor, cliché metaphor.

Metafora tushunchasiga berilgan ta'riflar nihoyatda ko'p va murakkab bo'lib, ularning mazmuni turli ilmiy yo'nalishlar doirasida turlicha talqin etiladi. Ayniqsa, metaforani tilshunoslik, adabiyotshunoslik, psixolingvistika, kognitiv fan va pragmatika nuqtai nazaridan o'rganish natijasida ushbu hodisaga nisbatan bir-biridan farq qiluvchi, lekin o'zaro bog'liq yondashuvlar shakllangan. Shu sababli metafora mohiyatini yagona va universal ta'rif bilan cheklash qiyin. Hatto bir til doirasida berilgan ta'riflar ham turli maktablar va ilmiy an'analarga ko'ra farqlanadi, boshqa til va madaniyat kontekstiga o'tganda esa bu farqlar yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Bu holat metaforaning faqat til birligi emas, balki tafakkur, idrok va madaniy tajriba bilan chambarchas bog'liq murakkab semantik-pragmatik hodisa ekanini ko'rsatadi. Alvarezning metafora haqidagi tadqiqotida tilshunos Brooke-Rose metaforaga quyidagi ta'rifni bergani qayd etiladi: "Bir narsani boshqa bir narsa bilan aynanlashtirish, ya'ni odatiyroq so'z yoki iborani boshqasi bilan almashtirish metafora hisoblanadi". Ushbu ta'rif metaforaning klassik lingvistik mohiyatini ochib beradi, ya'ni unda bir predmet, hodisa yoki tushuncha nomi boshqa bir predmet yoki hodisaga ko'chiriladi. Bunda o'xshashlik, qiyosiy yaqinlik yoki assotsiativ bog'lanish asos bo'lib xizmat qiladi. Demak, metafora oddiy nominativ almashtirish emas, balki ma'no ko'chishiga asoslangan, ifodaning emotsional-ekspressiv imkoniyatlarini kuchaytiruvchi vosita hisoblanadi. Barcha tillarda metaforaning turli ko'rinishlari uchraydi va ular nutqni yanada bo'yoqdor, obrazli hamda ta'sirchan ifodalash uchun keng qo'llanadi. O'zbek tilida ham metafora badiiy matn, publitsistik nutq, kundalik so'zlashuv, folklor hamda maqol va matallar tarkibida faol ishlatiladi. Til egasi metafora vositasida oddiy ma'noni chuqurroq, obrazliroq va ko'proq hissiy ta'sir kuchiga ega shaklda ifodalaydi. Shu jihatdan metafora nafaqat badiiy bezak, balki fikrni ixcham, ta'sirchan va mazmunan ko'p qatlamli tarzda yetkazishning muhim vositasi sanaladi. U nutqda estetik ta'sirchanlikni oshiradi, tinglovchi yoki o'quvchining tasavvurini faollashtiradi hamda matnning emotsional-ekspressiv qiymatini kuchaytiradi.

Zamonaviy tadqiqotlarda metafora faqat tilning uslubiy hodisasi sifatida emas, balki inson tafakkurining muhim mexanizmlaridan biri sifatida ham qaraladi. Xususan, "yaxshi ijodiy metafora — bu kontekstual ta'sirlarning turli ko'rinishlarini saqlab qoladigan va nutq egasi tomonidan bilvosita, ya'ni yashirin tarzda ifodalanadigan metaforadir", degan yondashuv metaforaning pragmatik tabiati va nutqiy faoliyatdagi o'rmini ko'rsatadi. Bunday metaforada ma'no yuzaki emas, balki kontekst, kommunikativ vaziyat va nutq ishtirokchilarining umumiy bilimlari asosida anglashiladi. Demak, ijodiy metafora tinglovchi yoki o'quvchini faol talqinga

undaydi, uni matn osti ma'nolarini topishga jalb etadi. Natijada metafora estetik vosita bo'lish bilan birga, ma'no yaratishning faol mexanizmiga aylanadi.

Metaforaning juda ko'p turlari mavjud bo'lib, Tikrit universiteti Adabiyot fakulteti Tarjima bo'limi kafedrasida faoliyat olib boruvchi doktor Ahmed Hasani Yasenning "The Commonest Types of Metaphor in English" nomli ilmiy maqolasiga asoslanib, ularni quyidagicha tasniflash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Metaforaning turlari tasnifi

Birinchi tur metaforani uning fe'liga ko'ra tasniflaydi. Bunda metafora quyidagi kichik turlarga ajratiladi:

- 1.1. konkretlashtiruvchi (*concretizing*) metaforalar;
- 1.2. jonlantiruvchi (*animating*) metaforalar;
- 1.3. sinestetik (*synaesthetic*) metaforalar;
- 1.4. shaxslantiruvchi (*personifying*) metaforalar.

1.1. Konkretlashtiruvchi (*Concretizing*) metaforalar

Ushbu metaforalar reifikatsion, ya'ni predmetlashtiruvchi metaforalar deb ham ataladi. Ularga xos bo'lgan asosiy xususiyat shundaki, mavhum tushunchalar moddiy ko'rinishda namoyon etiladi, ya'ni nomoddiy tushunchalarga aniq moddiy xususiyatlar yuklanadi. Ular haqida batafsil misollar 1.1-jadvalda keltirilgan.

1.1-jadval

Konkretlashtiruvchi metaforalar tahlili

Inglizcha misol	O'zbekcha tarjimasi	Metaforik konkretlashtirish tahlili
<i>A fat account</i>	Semiz (mo'l-ko'l) hisobvaraqa	"Hisobvaraqa" kabi nomoddiy tushunchaga jismoniy hajm, ya'ni "semizlik" sifati yuklanmoqda.
<i>Digging for</i>	Haqiqatni qazish	"Haqiqat" mavhum tushunchasi yer ostidagi qazilma

<i>the truth</i>	(izlash)	boylik singari konkretlashtirilmoqda.
<i>Heavy heart</i>	Og‘ir yurak (g‘amginlik)	“G‘am” yoki “qayg‘u” kabi ruhiy holat jismoniy vaznga ega buyum sifatida tasvirlanmoqda.

Diniy diskursda murakkab metafizik tushunchalarni oddiy insoniy tasavvurlar orqali tushuntirishda metaforik ko‘chimlardan unumli foydalaniladi. Bunga misol tariqasida Al-Baqara surasining 256-oyatida “iymon” tushunchasining “tutqich” obrazi orqali konkretlashtirilganini ko‘rsatish mumkin.

1.2. Jonlantiruvchi (*Animating*) metaforalar

Metaforaning bu turi tabiat obyektlari yoki tabiiy hodisalarga hissiyot, ongillik va ruh bag‘ishlash xususiyati bilan boshqa metafora turlaridan ajralib turadi. Masalan:

- *An angry sky — G‘azablangan osmon.*

Ushbu metaforada osmonga go‘yo “hayot baxsh etilgan” bo‘lib, u g‘azabnok ruh timsolida gavdalantirilmoqda. G‘azablanish esa tirik mavjudotga xos xususiyatdir.

- *The wind howled — Shamol uvilladi.*

“Uvillash” aslida hayvonlarga xos biologik tovush bo‘lib, u jonsiz tabiat hodisasi — shamolga ko‘chirilgan.

Qur‘oni karimning badiiy diskursida ham “iymon”, “nifoq”, “hidoyat” kabi mavhum tushunchalarni tasvirlashda tabiat hodisalariga jonli mavjudot xususiyatlari yuklatiladi va bu animatizatsiya hodisasining qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, Al-Baqara surasining 74-oyatida “tosh”larga “qo‘rquv” hissi berilishi va ularning Allohdan qo‘rqib qulashi jonsiz materiyaga jonli mavjudot xususiyatini beruvchi jonlantiruvchi metaforaga yaqqol misoldir.

1.3. Sinestetik (*Synaesthetic*) metaforalar

Bu turdagi metaforalar muayyan sezgi a‘zolariga, ya‘ni ta‘m bilish, hid bilish, ko‘rish, eshitish va teri orqali sezishga xos bo‘lgan konseptlar orqali namoyon bo‘ladi. 1.2-jadvalda bu turdagi metaforalarning yorqin misollari berilgan.

1.2-jadval

Sinestetik metaforalar tahlili

Inglizcha misol	O‘zbekcha tarjimai	Sinestetik tahlil
<i>Sweet voice</i>	Shirin ovoz	Ta‘m bilishga xos “shirin” sifati eshitish sezgisiga ko‘chirilgan.
<i>Loud color</i>	Yorqin rang	Tovush balandligini ifodalovchi sifat ko‘rish sezgisiga ko‘chirilgan.
<i>Cold look</i>	Sovuq qarash	Haroratni bildiruvchi “sovuq” sifati ko‘rish sezgisiga ko‘chirilgan.
<i>Blind love</i>	Ko‘r sevgi	Ko‘rish bilan bog‘liq “ko‘r” sifati mavhum hissiyotga ko‘chirilgan.
<i>Scented memory</i>	Xushbo‘y xotira	Hid bilish xususiyati “xotira” kabi mavhum tushunchaga yuklangan.

Qur‘oni karimda sinestetik metafora elementlari ham uchraydi. Xususan, Al-Baqara surasining 171-oyatida kofirlarning ma‘naviy “ko‘rligi” va “karligi” jismoniy nuqson emas, balki haqiqatni idrok etish qobiliyatining kognitiv darajada to‘xtaganligini anglatuvchi kuchli sinestetik metaforani yuzaga keltiradi.

1.4. Shaxslantiruvchi (*Personifying*) metaforalar

Shaxslantiruvchi metaforalar antropomorfik metaforalar deb ham yuritiladi. Bunday metaforalar insoniy xususiyatga ega bo‘lmagan predmet yoki tushunchalarga insoniy sifatlarni ko‘chirishga asoslanadi. Masalan:

- *My car whines in pain — Mashinam og‘riqdan nola qiladi.*

Bu yerda mashinaga insoniy “nola qilish” xususiyati yuklatilgan.

- *The mirror lied to me — Ko‘zgu menga yolg‘on gapirdi.*

“Yolg‘on gapirish” faqat insonga xos axloqiy tushuncha bo‘lib, ko‘zguga ko‘chirilgan.

Qur‘oni karim matnining o‘ziga xos lisoniy jozibasi va emotsional ta‘sir kuchi ham ko‘pincha shaxslantiruvchi metaforalar orqali ta‘minlanadi. Jumladan, jonsiz tabiat hodisalariga insoniy xususiyatlarni ko‘chirish orqali tasvirlanayotgan manzaraga jonlilik baxsh etish usuli Takvir surasining 18-oyatida — “tongning nafas olishi” obrazida — yaqqol ko‘rinadi. Bu yerda tongga “ruh”, ya‘ni insoniy o‘zlik baxsh etilishi nafaqat jonlantiruvchi, balki yuksak badiiy shaxslantiruvchi hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

2. Metaforaning nutqda ommalashganligi va qo‘llanilishiga ko‘ra tasnifi

Metaforaning ikkinchi turi uning nutqda qo‘llanilishi va ommalashganligi nuqtai nazaridan tasniflanadi. Ushbu tasnifni ishlab chiqishda ko‘plab ritoriklar, tilshunoslar, yozuvchilar, adabiyotshunoslar, lug‘at tuzuvchilar va tarjima nazariyotchilari muhim hissa qo‘shgan. Metaforaning bu turi nutqda qo‘llanish va keng tarqalganlik darajasiga ko‘ra quyidagi guruhlariga bo‘linadi:

- 2.1. mutlaq (*absolute*) metaforalar;
- 2.2. faol (*active*) metaforalar;
- 2.3. klishe (*cliché*) metaforalar;
- 2.4. murakkab (*complex*) metaforalar;
- 2.5. qo‘shma (*compound*) metaforalar;
- 2.6. o‘lik (*dead*) metaforalar;
- 2.7. mudroq (*dormant*) metaforalar;
- 2.8. yoyiq (*extended*) metaforalar;
- 2.9. yashirin (*implicit*) metaforalar;
- 2.10. qorishiq (*mixed*) metaforalar;
- 2.11. original (*original*) metaforalar;
- 2.12. yangi davr (*recent*) metaforalar;
- 2.13. o‘zak (*root*) metaforalar;
- 2.14. oddiy (*simple*) metaforalar;
- 2.15. standart (*standard*) metaforalar;
- 2.16. qatlamli (*submerged*) metaforalar.

2.1. Mutlaq (*Absolute*) metaforalar

Mazkur metaforalar paralogik metaforalar deb ham yuritiladi. Bunday metaforalarda ko‘chirilayotgan tushuncha bilan unga asos bo‘layotgan obrazli ifoda o‘rtasida hech qanday zohiriy o‘xshashlik yoki idrok etilishi mumkin bo‘lgan mantiqiy bog‘liqlik mavjud bo‘lmaydi. Quyidagi 1.3-jadvalda eng mashhur paralogik metaforalarga misollar jamlangan.

1.3-jadval

Mutlaq metaforalar tahlili

Muallif va manba	Inglizcha misol / original	O‘zbekcha tarjimasini	Ilmiy-filologik tahlil
Paul Éluard (<i>L’Amour la poésie</i>)	<i>The earth is blue like an orange</i>	Yer — apelsin kabi ko‘kdir	Rang va predmet o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlik uzilgan.
F. García Lorca (<i>Poeta en Nueva York</i>)	<i>The moon is a white horse’s skull</i>	Oy — oq otning bosh suyagi	Osmon jismi va biologik qoldiq o‘rtasida mantiqiy bog‘lanish yo‘q.
J. T. Shipley	<i>We are the eyelids of defeated caves</i>	Biz mag‘lub g‘orlarning qovoqlarimiz	Obraz mantiqiy emas, balki paralogik bog‘lanishga ega.
Cho‘lpon (“Binafsha”)	<i>Stars are the bloody tears of the sky</i>	Ko‘kning qonli ko‘z yoshi — yulduzlar	Yulduz va qonli ko‘z yoshi o‘rtasida zohiriy o‘xshashlik yo‘q.
Abduvali Qutbiddin	<i>The cold breath</i>	Quyoshning sovuq	Quyosh va sovuq nafas

	<i>of the sun</i>	nafasi	o'rtasida absolyut zidlik mavjud.
--	-------------------	--------	-----------------------------------

Qur'oni karimda mutlaq metaforalarni aniqlash tilshunoslik nuqtai nazaridan murakkabdir, chunki muqaddas matn insoniyatga tushunarli bo'lishi uchun nozil qilingan. Biroq qiyomat manzaralari tasvirida shunday metaforalar uchraydiki, ularda ko'chirma asosi va obykti o'rtasidagi bog'liqlik inson tafakkuri uchun mutlaqo kutilmagan bo'ladi. Masalan, Takvir surasining 1-oyatidagi "quyoshning buklab o'ralishi" obrazi an'anaviy mantiqiy qiyoslardan butkul farq qiladi. Bu yerda lisoniy mantiq o'rnini kognitiv g'ayrioddiy obraz egallaydi va u insonni mantiqiy tahlildan ko'ra ilohiy qudratdan hayratga tushishga undaydi.

2.2. Faol (*Active*) metaforalar

Bu turdagi metaforalar tirik metaforalar deb ham ataladi. Faol metaforalar hali tilning kundalik iste'moliga to'liq singib ulgurmagan metaforalardir. Masalan:

- *You are my sun — Sen mening quyoshimsan.*

Inson va quyosh o'rtasidagi hayotiy bog'liqlik hali ham o'quvchida kuchli vizual obraz uyg'otadi.

- *Ideas are seeds — G'oyalar — urug'lardir.*

G'oyaning o'sishi va hosil berishi urug'ning biologik rivojlanishiga qiyoslanadi.

O'zining obrazlilik va universal kognitiv modeli bilan faol metaforalarning yorqin namunasi sifatida Jumu'a surasining 5-oyatini keltirish mumkin. Ushbu oyatda Tavrot — og'ir yuk sifatida talqin qilinadi, unga amal qilmaganlar esa eshakka qiyoslanadi. Ushbu zoometaforik obraz insoniy mantiq va hayotiy tajriba o'rtasidagi ziddiyatni jonli tasvirlab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Cho'lpon.Binafsha // Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1987.
2. Alvarez A.On translating metaphor // Meta. – 1997. – Vol. 42, No. 3. – P. 479–490.
3. Éluard P.L'Amour la poésie [Muhabbat va she'riyat]. – Paris: Gallimard, 1929. – URL: poesie-francaise.fr
4. García Lorca F.Poet in New York [Nyu-Yorkdagi shoir]. – New York: Grove Press, 1940. – URL: poetryfoundation.org
5. Löbner S.Understanding semantics. – London: Hodder Education, 2002. – 260 p.
6. Perelman Ch.Rhetoric terms: metaphor. – URL: www.lcc.gatech.edu/gallery/rhetoric/terms/metaphor.html
7. Procter P. (ed.).Longman New Universal Dictionary. – London: Longman, 1982. – 1150 p.
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – Toshkent: Hilol nashriyoti, 2008.
9. Shipley J. T.Dictionary of world literary terms. – Boston: The Writer, Inc., 1970. – URL: archive.org
10. Sperber D., Wilson D.Relevance: Communication and cognition. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1986. – 330 p.
11. Wright J. Idioms organizer. – UK: Heinle Inc., 1999. – 200 p.